

Markaziy bank tomonidan Moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'tkaziladigan Olimpiada QOIDALARI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Ushbu Qoidalar moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'tkaziladigan olimpiadani (bundan buyon matnda – olimpiada) tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2 Olimpiada yoshlar e'tiborini moliyaviy savodxonlikka jalb etish maqsadida Markaziy Bank tomonidan intellektual musobaqa tarzida o'tkazilmoqda.

1.3 Olimpiada ikki bosqichda – saralash va final bosqichlarida o'tkaziladi.

1.4 Olimpiada moliyaviy savodxonlik bo'yicha eng yuqori ball to'plagan intellektual bellashuvlar g'oliblarini aniqlaydi.

2. OLIMPIADA MAQSAD VA VAZIFALARI

Olimpiada o'tkazishdan asosiy maqsad talabalarning moliyaviy savodxonlik, moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va moliyaviy matematika sohalaridagi bilimni oshirib, ta'lim va tadqiqot yo'nalishidagi ishlarini rag'batlantirishdan iborat. Buning uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

– oliy o'quv yurti talabalari o'rtasida moliyaviy savodxonlikni targ'ib qilish hamda ularning moliya sohasidagi bilimlarini oshirish;

– moliyaviy savodxonlik va moliyaviy matematika sohasida talabalarning ko'nikmalarini hosil qilish;

– talabalarning intellektual qobiliyatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, bilim, kommunikativ, amaliy va ijodiy faoliyatda tajriba orttirish;

– talabalarda moliyaviy madaniyat shakllantirish.

3. OLIMPIADA TASHKILOTCHILARI

Olimpiada tashkilotchilari:

– O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki;

– O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

4. OLIMPIADA ISHTIROKCHILARI

Ushbu olimpiada oliy ta'lim muassasalari 1-3 bosqich talabalari o'rtasida o'tkaziladi. Talabalarning Olimpiadada ishtirok etish huquqi

pasport/identifikatsion ID-karta yoki talabalik guvohnomasi (o'quv dargohidan ma'lumotnoma) yordamida tasdiqlanadi.

5. OLIMPIADA O'TKAZISH TARTIBI

Olimpiada ikki bosqichda – saralash va respublika bosqichlarida o'tkaziladi.

5.1. Olimpiada saralash bosqichi

Saralash bosqichida Olimpiadada qatnashish istagini bildirgan hamda ro'yxatdan o'tgan talabalar ishtirok etadi. Olimpiadaning saralash bosqichi masofaviy shaklda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining onlayn olimpiadalar platformasida bo'lib o'tadi.

Saralash bosqichida apellyatsiyalarni ko'rib chiqish ko'zda tutilmagan.

5.2. Olimpiada Respublika bosqichi

Olimpiadaning respublika bosqichida saralash bosqichida 75% va undan ortiq savollarga to'g'ri javob bergan talabalar ishtirok etishlari mumkin. Respublika bosqichining o'tkazish Tartibi saralash bosqichi o'tkazilganidan so'ng belgilanadi hamda Olimpiada bo'yicha ma'lumotlar nashrlarida qo'shimcha ravishda e'lon qilinadi.

Chempionat finalida apellyatsiyalar ko'rib chiqish ko'zda tutilgan.

6. G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI

6.1. Olimpiada saralash bosqichi

Saralash bosqichi test shaklida o'tkaziladi. 1,5 soat ichida ishtirokchilar olimpiada dasturiga mos keladigan **20 ta test savollariga** javob berishlari kerak.

Test sinovlari uchun maksimal ball - **100 ball**.

Saralash bosqichida apellyatsiyalarni ko'rib chiqish ko'zda tutilmagan.

6.2. Olimpiada Respublika bosqichi

Olimpiadaning respublika bosqichi masalalar yechish shaklida o'tkaziladi. Ishtirokchilar 1 soat 30 daqiqa ichida olimpiada dasturiga mos keladigan **5 ta moliyaviy masalalarni** yechishlari kerak.

Moliyaviy masalalarni yechish uchun maksimal ball - **100 ball**.

Olimpiadaning respublika bosqichi g'oliblari (I, II va III o'rinlar) respublika bosqichi ishtirokchilari topshiriqlarni bajarishda to'plagan ballari yig'indisi bilan aniqlanadi.

Agar ishtirokchilarning ballari teng bo'lsa, olimpiadaning respublika bosqichi g'oliblarni aniqlash uchun qo'shimcha topshiriq beriladi. Hakamlar hay'ati tomonidan g'oliblarni aniqlash uchun qo'shimcha vazifalar baholanadi.

Final bosqichida apellyatsiyalarni ko'rib chiqish ko'zda tutilgan.

7. OLIMPIADA TASHKILIY QO'MITASI HAMDA HAKAMLAR HAY'ATI

Moliyaviy savodxonlik bo'yicha olimpiada tashkiliy qo'mitasi tarkibi Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vakillaridan iborat bo'ladi va quyidagilarni amalga oshiradi:

- olimpiadaning saralash bosqichi va respublika bosqichi vazifalari uchun test savollarini ishlab chiqish;

- baholash mezonlarini aniqlash va har bir bosqich vazifalariga javoblarni tekshirishni tashkil etish;

- olimpiada tartibi va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

- olimpiada g'oliblarini taqdirlash dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Olimpiada ishtirokchilari natijalarini baholash uchun O'zbekiston Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi vakillari hamda moliya sohasidagi boshqa ekspertlardan iborat Hakamlar hay'ati tuziladi.

Olimpiada tashkiliy qo'mitasi ogohlantirmasdan turib 4-bandda ko'rsatilgan talablarga javob bermaydigan shaxslarni ishtirokchilar ro'yxatiga kiritmaslikka haqli.

8. RESPUBLIKA BOSQICHI NATIJALARI BO'YICHA APELLYATSIYALARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

Apellyatsiya Olimpiada ishtirokchisining Respublika bosqichi sinovlari natijalarini baholash xulosalariga norozi bo'lgan vaqtda o'tkaziladi. Har bir ishtirokchi apellyatsiya uchun ariza berish huquqiga ega.

Apellyatsiyalarni ko'rib chiqish tinch va do'stona muhitda amalga oshiriladi. Apellyatsiya bergan Olimpiada ishtirokchisiga uning ishi Olimpiada mezonlari va metodikasi asosida tekshirilgani hamda baholanganiga ishonch hosil qilish imkoniyati taqdim etiladi.

Respublika bosqichi ishtirokchisining apellyatsiyasi Olimpiada Hakamlar hay'ati tomonidan Respublika bosqichi o'tkazilgan kunida tegishli ariza berilgan vaqtdan boshlab ko'rib chiqiladi.

Apellyatsiya berish uchun Olimpiada Respublika bosqichi talabasi Olimpiada Tashkiliy qo'mitasiga yozma ariza beradi. Apellyatsiyaga ariza

natijalar e'lon qilingandan boshlab 1 soat mobaynida belgilangan shaklda qabul qilinadi. Belgilangan muddat o'tganidan so'ng taqdim etilgan shikoyatlar qabul qilinmaydi.

Apellyatsiyani ko'rib chiqish natijalariga asosan quyidagi qarorlardan biri qabul qilinadi:

- apellyatsiyani bekor qilish va e'lon qilingan ballarni o'z kuchida qoldirish;
- apellyatsiya shikoyatini qondirish va ballarga tuzatish kiritish.

Respublika bosqichi vazifalarini baholash mezonlari va metodikasi apellyatsiya shikoyati predmeti bo'la olmaydi va qayta ko'rib chiqilmaydi. Agar Olimpiada Respublika bosqichi ishtirokchisining apellyatsiya shikoyati faqat olimpiada baholash mezonlari va metodikasidan noroziligini bildirib yozilgan bo'lsa, bunday shikoyat qabul qilinmaydi.

Olimpiada Respublika bosqichi bo'yicha so'nggi natijalar Olimpiada Hakamlar hay'ati tomonidan apellyatsiyalar natijalarini hisobga olgan holda tasdiqlanadi.

9. OLIMPIADA SOVG'ALARI

O'qish bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish maqsadida taqdim etiladigan pul mukofotlarining hajmi:

- 1 o'rin** – 7,0 mln. so'm
- 2 o'rin** – 5,0 mln. so'm
- 3 o'rin** – 3,5 mln. so'm

10. YAKUNIY QOIDALAR

Barcha nizoli masalalar yoki ushbu Olimpiadani tashkil etish Qoidalari bilan tartibga solinmagan masalalar Tashkiliy qo'mita tomonidan zudlik bilan hal qilinadi.

Bunday masalalar bo'yicha Tashkiliy qo'mita raisining qarori yakuniy hisoblanadi.

Olimpiada tadbirlari e'lonlari va natijalari to'g'risida ma'lumotlar berish Markaziy bank, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va oliy o'quv yurtlarining rasmiy veb-saytlarida va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida amalga oshiriladi.